MILLIY QADRIYATLAR VA ZAMONAVIY AXLOQIY ME’YORLAR UYG‘UNLIGI

Muminov Sherzod Kamilovich
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya:
Mazkur maqolada milliy qadriyatlar va zamonaviy axloqiy me’yorlarning o‘zaro uyg‘unligi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni saqlash, ma’naviy merosni rivojlantirish hamda umuminsoniy axloqiy tamoyillarni qaror toptirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, oila, ta’lim tizimi va jamiyat hayotida qadriyatlar uyg‘unligining ahamiyati ochib berilib, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida milliy va zamonaviy qadriyatlar sintezining ma’naviy asoslari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *Milliy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar, ma’naviy meros, globallashuv, qadriyatlar uyg‘unligi, milliy o‘zlik, ma’naviy tarbiya, fuqarolik madaniyati, Yangi O‘zbekiston, ijtimoiy-falsafiy tahlil.*

KIRISH.

Milliy qadriyatlar va zamonaviy axloqiy me’yorlar jamiyat ma’naviy hayotining eng muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Ular insonning dunyoqarashi, xulq-atvori, ijtimoiy munosabatlari hamda jamiyat taraqqiyotining ma’naviy mezonlarini belgilab beradi. “Har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan milliy qadriyatlari uning madaniyati, urf-odatlari, an’analari, diniy e’tiqodlari va ma’naviy merosida o‘z ifodasini topadi”[1]. Zamonaviy axloqiy me’yorlar esa insoniyatning uzoq tarixiy tajribasi, demokratik tamoyillar, inson huquqlari, erkinlik, adolat va tenglik kabi umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlanib borgan ijtimoiy me’yorlar tizimini anglatadi.

Milliy qadriyatlar tushunchasi ma’lum bir millatning tarixiy xotirasi va ijtimoiy tajribasi mahsuli sifatida shakllanadi. Ular avloddan-avlodga o‘tib, xalqning ma’naviy qiyofasini saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘zbek xalqining mehmondo‘stlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mahalla institutiga sadoqat, oila muqaddasligi, bag‘rikenglik va hamjihatlik kabi qadriyatlari milliy qadriyatlarning muhim ko‘rinishlaridir. Ushbu qadriyatlar nafaqat tarixiy meros sifatida, balki zamonaviy jamiyatning ma’naviy taraqqiyotida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Axloqiy me’yorlar esa “jamiyat tomonidan e’tirof etilgan xulq-atvor qoidalari bo‘lib, ular insonlarning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi. Axloqiy me’yorlarning asosiy vazifasi shaxsning xatti-harakatlarini ezgulik, adolat, mas’uliyat va vijdon mezonlari asosida yo‘naltirishdan iboratdir. Zamonaviy axloqiy me’yorlar globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi natijasida yangi mazmun bilan boyib bormoqda”[2]. Bugungi kunda inson huquqlariga hurmat, gender tengligi, ekologik mas’uliyat, raqamli madaniyat va ijtimoiy adolat kabi tamoyillar zamonaviy axloqiy me’yorlarning muhim tarkibiy qismlariga aylangan.

Milliy qadriyatlar va zamonaviy axloqiy me’yorlarning nazariy asoslarini tushunishda aksiologik yondashuv alohida ahamiyatga ega. Aksiologiya qadriyatlar haqidagi ta’limot sifatida inson va jamiyat hayotida qadriyatlarning o‘rni, mohiyati

hamda funksiyalarini o‘rganadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, milliy qadriyatlar va axloqiy me’yorlar insonning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga, uning hayot mazmunini belgilashga va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham qadriyatlar va axloqiy me’yorlar bir-biridan ajralmas tushunchalar bo‘lib, ular jamiyat ma’naviy tizimining asosini tashkil etadi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, “milliy qadriyatlar va zamonaviy axloqiy me’yorlar o‘rtasida dialektik bog‘liqlik mavjud. Bir tomondan, milliy qadriyatlar zamonaviy axloqiy me’yorlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchi tomondan, zamonaviy axloqiy me’yorlar milliy qadriyatlarning yangi tarixiy sharoitlarga moslashuviga yordam beradi”[3]. Masalan, an’anaviy hurmat va bag‘rikenglik qadriyatlari bugungi kunda inson huquqlariga hurmat va madaniyatlararo muloqot tamoyillari bilan uyg‘unlashib, yangi mazmun kasb etmoqda. Bu jarayon qadriyatlarning statik emas, balki dinamik xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Milliy qadriyatlar va zamonaviy axloqiy me’yorlarning nazariy asoslarini tahlil qilishda sivilizatsion yondashuv ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, har bir jamiyat o‘zining tarixiy-madaniy xususiyatlarini saqlagan holda umuminsoniy taraqqiyot jarayoniga qo‘shiladi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasida o‘zaro boyituvchi munosabatlar shakllanadi. Zamonaviy demokratik jamiyatlarda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash bilan bir qatorda, inson sha’ni va qadr-qimmatini ulug‘lash, qonun ustuvorligini ta’minlash ham muhim axloqiy tamoyil sifatida qaraladi.

XXI asrda globallashuv dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot aloqalarining mislsiz darajada kuchayishi bilan tavsiflanadi. Mazkur jarayon insoniyat taraqqiyotiga yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, milliy qadriyatlar, an’analar va madaniy merosni asrab-avaylash masalasini ham dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Chunki globallashuv ta’sirida turli xalqlar o‘rtasida madaniy almashinuv jadallashib, ayrim hollarda milliy o‘ziga xoslikning zaiflashishi yoki ommaviy madaniyat ta’sirida ayrim qadriyatlarning o‘z ahamiyatini yo‘qotish xavfi yuzaga keldi. Shu sababli milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish har bir jamiyatning ma’naviy xavfsizligini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy tajribasi va madaniy merosining mahsuli sifatida shakllanadi. Ular millatning o‘zligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri bo‘lib, avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy uzviylikni ta’minlaydi. O‘zbek xalqining mehmondo‘stlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, oila muqaddasligi, mahalla institutining ahamiyati, bag‘rikenglik va hamjihatlik kabi qadriyatlari xalqimizning ma’naviy qiyofasini ifodalaydi. Globallashuv sharoitida ushbu qadriyatlarni saqlab qolish, ularni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish va yosh avlod ongiga singdirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Milliy qadriyatlarni saqlashning eng muhim mexanizmlaridan biri ta’lim va tarbiya tizimidir. Oila, maktab, oliy ta’lim muassasalari va jamoatchilik institutlari yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash, ularda tarixiy merosga hurmat tuyg‘usini shakllantirish orqali qadriyatlarning uzluksiz davomiyligini ta’minlaydi. Ayniqsa, milliy tarix, adabiyot, madaniyat va ma’naviyatga oid bilimlarni chuqur o‘rgatish yoshlarning milliy o‘zlikni anglash darajasini oshiradi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv davrida ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlari milliy qadriyatlarni targ‘ib qilishning samarali vositasiga aylanmoqda. Agar axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanilsa, ular milliy madaniyat va an’analarni dunyo miqyosida tanitish imkonini beradi. Raqamli platformalarda milliy urf-odatlar, tarixiy obidalar, xalq og‘zaki ijodi va madaniy merosni targ‘ib etuvchi loyihalarning ko‘payishi milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq axborot oqimining cheksizligi yoshlar ongiga yot g‘oyalar va iste’molchilik kayfiyatlarini ham singdirishi mumkin. Shu bois axborot madaniyatini rivojlantirish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish zarur.

Milliy qadriyatlarni rivojlantirish faqat ularni saqlab qolish bilan cheklanmaydi. Ularni zamonaviy hayot talablariga moslashtirish va yangi mazmun bilan boyitish ham muhimdir. An’anaviy hamjihatlik va jamoaviylik qadriyatlari bugungi kunda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish va volontyorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali yangi shakllarda namoyon bo‘lmoqda”[4]. Xuddi shuningdek, bag‘rikenglik qadriyati turli millat va din vakillari o‘rtasidagi o‘zaro hurmat hamda muloqotni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Oila va ta’lim tizimi jamiyatning ma’naviy-axloqiy poydevorini shakllantiruvchi eng muhim ijtimoiy institutlar hisoblanadi. Aynan ushbu institutlar orqali milliy qadriyatlar avloddan-avlodga uzatiladi, axloqiy me’yorlar esa shaxsning hayotiy qarashlari va xulq-atvoriga singdiriladi. Shuning uchun milliy qadriyatlar hamda zamonaviy axloqiy me’yorlarning uyg‘unligi oila va ta’lim tizimining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. “Oila insonning ilk tarbiya maskani bo‘lib, unda farzandning ma’naviy qiyofasi, axloqiy fazilatlari va hayotiy qadriyatlari shakllanadi. O‘zbek xalqiga xos bo‘lgan kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat, sabr-toqat, mehnatsevarlik va vatanparvarlik kabi qadriyatlar, avvalo, oilada o‘rgatiladi”[5]. Ushbu qadriyatlar zamonaviy axloqiy me’yorlar bilan uyg‘unlashgan holda farzandlarda mas’uliyat, halollik, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi fazilatlarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ta’lim tizimi esa oilada boshlangan tarbiyaviy jarayonni ilmiy va metodik asosda davom ettiradi. Maktab, akademik litsey, kollej va oliy ta’lim muassasalari yoshlarning nafaqat bilim olishi, balki ma’naviy-axloqiy kamol topishida ham muhim o‘rin tutadi. Ta’lim jarayonida milliy qadriyatlar tarix, adabiyot, ma’naviyat va madaniyat darslari orqali singdirilsa, zamonaviy axloqiy me’yorlar fuqarolik mas’uliyati, qonunga hurmat, inson huquqlari va bag‘rikenglik tamoyillari orqali shakllantiriladi.

Bugungi globallashuv davrida yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, ularda mustahkam ma’naviy immunitet hosil qilish uchun oila va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlar va zamonaviy axloqiy me’yorlarning uyg‘unligi natijasida jamiyat oldidagi burchini anglaydigan, milliy o‘zligini qadrlaydigan va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan barkamol avlod tarbiyalanadi. Shu bois oila va ta’lim tizimining o‘zaro hamkorligi ma’naviy taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi.

Shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar har qanday ijtimoiy tizimning barqaror rivojlanishini belgilovchi muhim omillardan biridir. Ushbu munosabatlarning mazmuni va samaradorligi ko‘p jihatdan jamiyatda amal qilayotgan qadriyatlar tizimiga bog‘liq

bo‘ladi. Qadriyatlar insonning maqsadlari, manfaatlari, xulq-atvori va ijtimoiy faoliyatini yo‘naltiruvchi ma’naviy mezonlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxs va jamiyat munosabatlarida milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi ijtimoiy barqarorlik, hamjihatlik va taraqqiyotni ta’minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. “Har bir shaxs jamiyatning ajralmas qismi sifatida ma’lum qadriyatlar muhitida shakllanadi. Insonning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va hayotiy pozitsiyasi oila, ta’lim, madaniyat va ijtimoiy munosabatlar ta’sirida rivojlanadi. Agar jamiyatda ezgulik, adolat, halollik, bag‘rikenglik va mas’uliyat kabi qadriyatlar ustuvor bo‘lsa, shaxsning ma’naviy kamoloti uchun qulay sharoit yaratiladi”[6]. Inson o‘z manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishga intiladi va ijtimoiy hayotda faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etadi.

Qadriyatlar uyg‘unligi shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ishonch munosabatlarini mustahkamlaydi. Jamiyat a’zolari tomonidan umumiy qadriyatlarning tan olinishi va ularga amal qilinishi ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi. Ayniqsa, o‘zaro hurmat, hamkorlik, qonunlarga itoat qilish va fuqarolik mas’uliyati kabi qadriyatlar jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantiradi. Bunday muhitda ijtimoiy ziddiyatlar kamayadi, turli guruhlar va qatlamlar o‘rtasidagi hamkorlik rivojlanadi hamda umumiy maqsadlarga erishish imkoniyatlari kengayadi.

Shaxs va jamiyat munosabatlarida qadriyatlar uyg‘unligining yana bir muhim jihati ijtimoiy adolatni ta’minlash bilan bog‘liqdir. Adolat, tenglik va inson qadr-qimmatini e’zozlash kabi qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining muhim mezonlari hisoblanadi. Ushbu qadriyatlar amalda qaror topgan jamiyatlarda fuqarolarning huquq va erkinliklari himoya qilinadi, inson manfaatlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Fuqarolarning davlat va jamiyat institutlariga bo‘lgan ishonchini oshirib, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. “Globallashuv sharoitida qadriyatlar uyg‘unligi alohida ahamiyat kasb etib, turli madaniyatlar va g‘oyalar o‘rtasidagi muloqot kuchayib borayotgan bir paytda milliy qadriyatlarni saqlagan holda umuminsoniy tamoyillarga amal qilish zarurati ortdi”[7]. Bu jarayon shaxsning milliy o‘zligini anglash bilan birga, boshqa xalqlar madaniyatiga hurmat bilan qarashini ham taqozo etadi. Natijada bag‘rikenglik, madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy hamkorlik rivojlanadi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni zamonaviy taraqqiyot talablariga mos ravishda rivojlantirishdan iboratdir. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarni, balki jamiyatning ma’naviy-axloqiy hayotini ham qamrab olmoqda. Bu jarayonda milliy qadriyatlar va zamonaviy axloqiy me’yorlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi, ya’ni sintezi jamiyat taraqqiyotining muhim ma’naviy poydevori sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki har qanday modernizatsiya jarayoni xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va ma’naviy an’analariga tayangan holdagina barqaror va samarali natija berishi mumkin.

Milliy qadriyatlar xalqning ko‘p asrlik tarixiy tajribasi davomida shakllangan ma’naviy boyliklar tizimi bo‘lib, unda insonparvarlik, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, oila muqaddasligi va vatanparvarlik kabi fazilatlar mujassamdir. Ushbu qadriyatlar xalqning milliy o‘zligini saqlash, ma’naviy barqarorligini ta’minlash va avlodlar o‘rtasidagi uzviylikni mustahkamlashda

muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, zamonaviy axloqiy me’yorlar demokratik tamoyillar, inson huquqlari, qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat, gender tengligi, ekologik mas’uliyat va fuqarolik madaniyati kabi umuminsoniy g‘oyalarni o‘z ichiga oladi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida aynan mana shu ikki tizimning uyg‘unlashuvi jamiyatning ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlamoqda.

Milliy qadriyatlar va zamonaviy axloqiy me’yorlar sintezining muhim jihatlaridan biri inson manfaatlarini oliy qadriyat sifatida e’tirof etishdir. O‘zbek xalqining azaliy insonparvarlik an’analari bugungi kunda inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, fuqarolarning qadr-qimmatini ulug‘lash tamoyillari bilan uyg‘unlashmoqda. Natijada shaxs manfaatlari va jamiyat manfaatlari o‘rtasida muvozanatni ta’minlashga qaratilgan yangi ijtimoiy munosabatlar shakllanmoqda. Bu esa fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ta’lim va tarbiya tizimida ham mazkur sintezning amaliy ifodasini kuzatish mumkin. Bugungi kunda yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bilan birga, ularda tanqidiy fikrlash, innovatsion tafakkur, qonunga hurmat va fuqarolik mas’uliyati kabi zamonaviy axloqiy fazilatlarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa ma’naviy yetuk, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishga xizmat qilmoqda. Yoshlarning milliy o‘zlikni anglagan holda global dunyo talablari asosida fikrlashi mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

“Yangi O‘zbekiston sharoitida mahalla institutining faoliyati ham milliy qadriyatlar va zamonaviy axloqiy me’yorlar sintezining yorqin namunasidir. Mahalla qadimiy jamoaviylik, o‘zaro yordam va hamjihatlik qadriyatlarini saqlab qolgan holda, bugungi kunda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga, aholi muammolarini hal etishga va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirishga xizmat qiladi”[8]. Bu esa an’anaviy qadriyatlarning zamonaviy ijtimoiy boshqaruv tamoyillari bilan uyg‘unlashayotganini ko‘rsatadi.

Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar va zamonaviy axloqiy me’yorlar sintezi ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Turli mafkuraviy tahdidlar, ommaviy madaniyat ta’siri va axborot oqimlarining kuchayishi sharoitida yoshlarda mustahkam ma’naviy immunitetni shakllantirish zarurati ortmoqda. Bunday vaziyatda milliy qadriyatlar shaxsning ma’naviy tayanchi bo‘lib xizmat qilsa, zamonaviy axloqiy me’yorlar unga global dunyoda faol va mas’uliyatli yashash ko‘nikmalarini beradi. Ushbu uyg‘unlik insonning o‘z milliy ildizlariga sodiq qolgan holda zamonaviy taraqqiyot jarayonlarida faol ishtirok etishiga imkon yaratadi.

1. Ta’lim tizimiga integratsiya qilish – maktab, kollej, litsey va oliy ta’lim muassasalarida milliy qadriyatlar hamda zamonaviy axloqiy me’yorlar uyg‘unligini o‘rgatuvchi maxsus o‘quv modullarini joriy etish zarur.

2. Raqamli makonda ma’naviy targ‘ibotni kuchaytirish – ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va media platformalarda milliy an’analar, oilaviy qadriyatlar va umuminsoniy axloqiy tamoyillarni targ‘ib qiluvchi sifatli kontentlar yaratish lozim.

3. Oila va mahalla hamkorligini rivojlantirish – yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasalari o‘rtasida uzviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali milliy va zamonaviy qadriyatlarning uyg‘unligini mustahkamlash kerak.

4. Yoshlar uchun ma’naviy-ma’rifiy loyihalarni kengaytirish – vatanparvarlik, bag‘rikenglik, mas’uliyat va halollik kabi fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan forumlar, tanlovlar va treninglar sonini oshirish maqsadga muvofiq.

5. Ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash – milliy qadriyatlar va zamonaviy axloqiy me’yorlarning o‘zaro ta’sirini o‘rganuvchi ilmiy izlanishlar, grantlar va innovatsion loyihalarni rag‘batlantirish zarur.

Xulosa. Milliy qadriyatlar va zamonaviy axloqiy me’yorlar uyg‘unligi Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim ma’naviy asoslaridan biridir. Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy tajribasi, madaniy merosi va ma’naviy dunyoqarashini aks ettirsa, zamonaviy axloqiy me’yorlar inson huquqlari, adolat, erkinlik va ijtimoiy mas’uliyat kabi umuminsoniy tamoyillarni o‘zida mujassamlashtiradi. Ularning o‘zaro uyg‘unlashuvi jamiyatda barqarorlikni ta’minlash, yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamolotini yuksaltirish hamda fuqarolik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni saqlagan holda zamonaviy taraqqiyot talablariga moslashish jamiyatning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bois milliy va zamonaviy qadriyatlarning mutanosib rivoji ma’naviy yuksalish, ijtimoiy hamjihatlik va inson kapitalining sifat jihatdan o‘sishini ta’minlaydigan muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Acamaddinov E. Axloqiy madaniyat va uning pivojlanish xucuciyatlapi: Fal. fan. nom. ... dic. avtopef. – Toshkent: O‘zMU, 1999. – B.22.

2. Absattopov B Bapkamol yoshlapni tapbiyalashda ma’naviy-axloqiy mezon va meyoplapning o‘pni. // AnDU ilmiy xabapnomasi. – Andijon, 2021. № 5. –B.23-30.

3. Boytemipova Z.D. Shaxs axloqiy ehtiyojlapini shakllantipish omillapi: fal.fan.nom dis. – Toshkent: 2009. – B.118.

4. Ochilova B.M. Ajdodlap meposiga ixlosmandlik va shaxc ma’naviy-axlokiy kamoloti: Fal. fan. dok. dis. … avtopef. –Toshkent: O‘zMU, 2005. –B.44.

5. Qahhopova M Jamiyatda ma’naviy-axloqiy muhit: muammo va echimlap: Fal. fan. dok. ... disseptatsiya. – Toshkent: 2012, – B.172.

6. Штомпель Л.А. Теоретическая и прикладная этика в системе современной культуры: сборник научных трудов. – М.: Берлин Директ-Медиа, 2016. – С.585.

7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblap. - Toshkent: Hilol-Nashr, 2020. – B.456.

8. Saifnazapov I. Yoshlap va oila vatan tayanchi. – Toshkent: Ta’lim, 2018. – Б.132.